

## **PARRANDALAR PASTERELLYOZINING KLINIK BELGILARI**

Sobirov Sanjarbek Farxodjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Xonodon va tomorqalarda parrandachilik hamda chorvachilik texnologiyasi” kafedrasi assistenti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada parrandalarda pasterellyozning kechishi va klinik belgilarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu kasallikdagi patologik va anatomik o'zgarishlar ham o`rganib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Pasterellyoz, tovuq, jo'ja, o'pka, bronx, klinik belgilar, patologoanatomik o'zgarishlar, diagnostika, bakteriologik, qo'zg'atuvchi.

### **KIRISH**

Respublikamiz qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan parrandachilikda shirkat va fermer xo'jaligi kabi boshqaruva shakllari yuzaga kelib, parranda bosh sonini oshirishda va parrandachilik mahsulotlarini yetishtirishda salmoqli hissalarini qo'shib, samarali faoliyat yuritmoqdalar. Lekin ularning to'laqonli faoliyat yuritishiga, bundan ham samaraliroq natijalarga erishishlariga veterinariya xizmatini ko'rsatishdagi mavjud muammolar va qishloq xo'jaligi parrandalarining yuqumli bakterial kasalliklarining uchrab turishi kabi salbiy omillar to'sqinlik qilmoqda.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Patogen pasterellalar kasallanib sog'aygan va ular bilan kontaktda bo'lgan sog'lom parrandalar, shuningdek sinantrop parrandalar organizmida hamuzoq vaqt saqlanib, o'ziga xos statsionar epizootik o'choq paydo qiladi. Pasterella tashuvchanlik nosog'lom xo'jaliklarda qoramollar orasida 70%, qo'ylarda 50%, cho'chqalarda 45%, quyonlarda 50% va undan ortiq, parrandalarda 35-50% ga yetadi. Bu holat pasterellyozga qarshi kurash muammolarini yanada og'irlashtiradi hamda xo'jaliklarni pasterellyozdan sog'lomlashtirishda muhimahamiyatga ega.

O'zbekistonning parrandachilik bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklarida, xususiy tadbirkorlar xo'jaliklarida esa keyingi yillarda bu kasallik parrandalar orasida tez-tez uchrab turmoqda. Bu esa parrandachilik, xususan veterinariya xizmati mutaxassislari oldida turgan muhim muammolardan biridir. Shu sababli qishloq xo'jaligida parrandalarda uchraydigan pasterellyoz



kasalligining hozirgi zamon diagnostika usullari, oldini olish va ularga qarshi samarali kurash chora-tadbirlarini o‘rganish, takomillashtirish, ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish juda dolzarb mavzu hisoblanadi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Kasallik paydo bo‘lishida avvalam bor yosh jo‘jalar kasallanishi va so‘ngra katta yoshdagi tovuqlar kasallanishi, ayrim holatlarda parrandalarning 50 % kasallikka chalinishi aniqlandi.

Kasallik barcha parrandalarda o‘ta o‘tkir, o‘tkir, yarim o‘tkir va surunkalikechishi kuzatildi. Jo‘jalarda kasallik o‘ta o‘tkir kechganda ularning tana harorati 42-43<sup>0</sup>C ga ko‘tarilishi, yurak urishi tezlashishi, nafas olish tezlashishi, qonli ich ketish paydo bo‘lishi namoyon bo‘ldi. Bunday holatda kasalparranda bir necha soatdan keyin yurak yetishmovchiligi va o‘pkaning shishidan o‘lishi kuzatildi. O‘tkir kechganida kasallik 2-3 kun davom etishi, holsizlanish, tana haroratining 42-43<sup>0</sup>C gacha ko‘tarilishi kuzatildi. Bosh, bo‘yin, hiqildoq, til, to‘s, oyoqlarining teri osti kletchatkasida shishlar rivojlanishi aniqlandi. Kasallik yarim o‘tkir va surunkali kechganda, parranda ahvoli yanada og‘irlashib, pnevmoniya va enterit belgilari paydo bo‘ldi. Kaxeksiya va bo‘g‘inlarning shishishi kuzatildi. Kuzatishlar natijasida pasterellyoz bilan asosan katta yoshdagi parrandalar va jo‘jalar ko‘proq kasallanishini aniqlandi.

5 oylikgacha bo‘lgan parrandalarda pasterellyoz ko‘proq respirator kasalliklar ko‘rinishida o‘tib, o‘pkaning har xil darajada yallig‘lanishbelgilari, konyunktivit, ko‘zdan yosh oqish bilan namoyon bo‘ldi. Ularda tana harorati 42<sup>0</sup>-43<sup>0</sup>C ga ko‘tarilib, yurak pulsi 1 daqiqada 101-142 taga, nafas olishi 21-55 tagacha yetishi, ishtaha yo‘qolib, tanasida titrash paydo bo‘lishi, umumiy holsizlik, darmonsizlik, kuchli yo‘tal paydo bo‘lib, burnidan ajratmalar oqishi, tezagi suyuqlashib shilimshiq va kamroq qon aralash bo‘lishi aniqlandi.

O‘lgan va majburiy so‘yilgan parrandalarda pasterellyoz kasalligining patologoanatomik belgilari o‘ta otkir yoki o‘tkir kechganida o‘zgarish faqat nafas olish organlarida bo‘lib, nafas yo‘llarining va o‘pka parenximasining kataral yallig‘lanishi bilan namoyon bo‘ldi. Nafas olish yo‘llarining shilimshiq qavatlarida shishish, shilimshiq ekssudat, qon quyulishlar kuzatildi. Nafas yo‘llarida yiringli shilimshiq, qon quyulishlar bo‘lib, plevrit bilanog‘irlashganda, ko‘krak bo‘shlig‘ida loyqa kulrang-sariq suyuqlik to‘planganligi kuzatildi.

Yurak hajmi kattalashgan, yumshoq konsistensiyada, rangi kulrang-pushti bo‘lib xuddi pishirilganday ko‘rinadi. Limfa tugunlari kattalashgan. Ingichka ichak



shilimshiq qavatida kataral yallig‘lanish, qon quyulishlar kuzatiladi. Jigar qonga to‘lgan, qon quyulish va unda har xil ranglanish ko‘rinadi. Parrandalarning ko‘krak bo‘shlig‘ida yiringli plevrit, qovurg‘a qismidafibrinli ajratmalar, ekssudat xiraligi ko‘zga tashlandi. Ichaklarda kataral yallig‘lanishlar va ichak limfa tugunlarining 2-3 marta kattalashganligi aniqlandi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Shunday qilib pasterellyoz bilan ayniqsa yosh jo‘jalarning kasalikka o‘ta moyilligi kuzatildi. Kasallik burun yo‘llari, traxeya, o‘pka hamda ovqat hazm qilish traktida turli xildagi jarohatlanishlar hosil qilganholda kechishi ma’lum bo‘ldi. Kasallik o‘ta o‘tkir, o‘tkir, yarim o‘tkir va surunkali kechishi kuzatildi. Jo‘jalarda kasallik kechganda ularning tana harorati 42-43°C ga ko‘tarilishi, yurak urishi tezlashishi, nafas olish tezlashishi, qonli ich ketish paydo bo‘lishi namoyon bo‘ldi. Bosh, bo‘yin, hinqaldoq, til, to‘sh, oyoqlarining teri osti kletchatkasida shishlar rivojlanishi aniqlandi, pnevmoniya va enterit belgilari paydo bo‘ldi.

Patalogoanatomik belgilari nafas olish organlarida bo‘lib, nafas yo‘llarining va o‘pka parenximasining kataral yallig‘lanishi bilan namoyon bo‘ldi. Nafas olish yo‘llarining shilimshiq qavatlarida shishish, shilimshiq ekssudat, yiringli shilimshiq, qon quyulishlar, ko‘krak bo‘shlig‘ida loyqa kulrang-sariq suyuqlik to‘planganligi kuzatildi. Ichaklarda kataralyallig‘lanishlar va ichak limfa tugunlarining 2-3 marta kattalashganligi aniqlandi.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Djupina, S.I. Parrandalarning omilli yuqumli kasallikkari / S.I.Djupina // Veterinariya tibbiyoti. -№ 11.- 2011 yil.
2. Rusalev, B.C. Parrandalarning pasterellyozi: / miloddan avvalgi. Rusalev; // Savdo va naslli cho'chqachilik. № 2, 2016 yil.
3. Sultonov A.A. Qozog'istonda chorvachilikning epizootologik holati va veterinariya muammolarini ilmiy ta'minlash: Mater. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya: Olmaota, 2013 y.
4. Sosnitskiy, A.I. Parrandalar parazitotsinozi tarkibida faktoriy va klassik tipdag'i pasterellyoz infektsiyalari: / A.I. Sosnitskiy, B.T. Stegni,
5. V.M. Apatenko // Veterinariya maslahati. No 13. – 2017 yil.